



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi


2018 yilning yanvar – may oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - may oylarida O'zbekiston Respublikasida jami **16 551,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,5 %**ni tashkil etdi.


Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **5 402,0 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **32,6 %** hamda

o'tgan yilning mos davriga nisbatan **134,0 %**ni tashkil etdi.

Kichik korhona va tshkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **41,8 %** i yoki **6 912,7 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **108,3 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **25,6 %** yoki **4 237,0 mlrd.so'm** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **95,3 %**ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Jizzax viloyatida kuzatildi **1,3 %**. Bu hududda qurilish ishlarining asosiy qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, mazkur hududdagi jami qurilish ishlarining **61,1 %**ini tshkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa

37,6% qurilish ishlari bajarildi.

Sirdaryo viloyatida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi eng katta bo`ldi – **75,7 %**. Mazkur hududda yirik tashkilotlarning ulushi **4,1 %** va norasmiy sektorning ulushi **20,2 %**ni tashkil etdi.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Navoiy hamda Toshkent viloyatlarida kuzatildi. Navoiy viloyatida "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), Amudaryo-Zarafshon suv yo`lida nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish kabi loyihalarning amalga oshirilayotgani tufayli ushbu hududda o`shish suratining **124,7 %**

bo`lishini ta`minladi.

Toshkent viloyatida yakka tartibda turar joy qurilishining jadal borishi tufayli o`shish surati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **114,8 %** bo`lishi ta`minlandi.

Toshkent shahridagi yuqori o`shish surati, yani **111,7 %** metro liniyalarining qurilishi, Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **78,8 %**ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga

nisbatan **1,6 %** punktga ko`paydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda **10,3 %**ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **10,9 %** to`g`ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **31,7 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,9 %** punktga ko'paydi. Bu ko'rsatkich bo'yicha kichik tashkilotlar va mikrofirmalarning ulushi **36,5 %** (**1,0 %** punktga ko'payish) va norasmiy sektor **31,8 %**ni (**5,8 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi **47,0 %**ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,2 %**

punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi **47,8 %** (**5,3 %** punktga kamaydi) va norasmiy sektorning ulushi **5,2 %**ni (**0,9 %** punktga kamaydi) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,8 %** punktga kamaydi va **25,8 %**ni tashkil etdi. Qolgan **74,2 %** kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,8 %** punktga ko'paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan % da)



- Yirik pudrat tashkilotlari
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor


Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha ishlarni hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich **83,7 %** Navoiy viloyatida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich **65,3 %** Toshkent shahrida qayd etildi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida

qayd etilib, **25,0 %** ni tashkil etdi. Bu boradagi eng past ko'rsatkich **6,1 %** Andijon viloyatida kuzatildi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi va ushbu hududdagi jami qurilish ishlarining **23,7 %** ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56